

**ELEKTRON TA'LIM ILOVALARINI ISHLAB CHIQUISH VA QO'LLASH ORQALI
KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNING DIVERGENT TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISHNING USULLARI**

Gulhayo Tuxtasinova

FarDU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10982257>

***Annotatsiya.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarning divergent tafakkurini rivojlantirish samarali usullari amaliyotga tatbiq etish. Bu orqali o'quvchilarning fikrlash va boshqa qobiliyatlarini yana takomillashtirish. Yangi innovatsiyalardan keng foydalanish.*

***Kalit so'zlar:** Ta'lim jarayoni, divergent fikrlash, ijodkorlik qobiliyati, ta'lim tamoyilari, tanqidiy fikrlash, metodlar.*

Tafakkur inson aqliy faoliyatining va salohiyatining eng yuksak shaklidir. Ko'pchilik insonlarning ta'kidlashicha, insonlar hayvonlardan ongi bilan ustunlik qiladi. Lekin shu o'rinda shu aytish kerakki, insonda tafakkur bo'lganligi va tafakkur bilan chambarchas nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi, shu sababli u ongli mavjudotdir.

U shaxsning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning muhim xususiyatlarini, bog'lanish hamda munosabatlarini bevosita umumlashgan holda aks ettirishdan iborat bo'lgan aqliy jarayonidir.

Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishdan boshlanadi va hissiy bilish chegarasidan tashqariga chiqadi. Dunyoni bilish faoliyati ikki yo'ldan borishi mumkin. Bevosita yo'l bilan narsa va hodisalarning ayrim xossalarni sezgilar yordamida, idrok orqali narsa va hodisalarni yaxlitligicha, shuningdek, ilgari sezib idrok qilgan narsalarni ko'z oldimizda yaqqol tasavvur qilib bilib olamiz. Bu bevosita hissiy bilishdir. Dunyoda shunday narsa va hodisalar borki, biz ularni sezish, idrok qilish, tasavvurlar orqali bila olmaymiz. Bunday vaqtda dunyoni hissiy (bevosita) bilishdan tasavvur orqali tafakkurga (bavosita) o'tiladi. Dunyodagi narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabat, bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz hissiy yo'l bilan bila olmay, faqat bavosita yo'l bilan tafakkur orqali to'liq va chuqur bilib olamiz. Tasavvur qilishimiz mumkin bo'lmagan hodisalar fikr yuritish orqali hal qilinadi. Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumiy lashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullani-shiga imkon beradi. I. P. Pavlov aytganidek, «avvalo, umuminsoniy empirizmni, (insonning tajribasi, orttirgan bilimlari) nihoyat atrof olamni va insonning o'zini ham bilish uchun oliy qurol bo'lgan fanni ham yaratuvchi maxsus insoniy, oliy tafakkur» ayni shu bog'lanishlar asosida voqe bo'ladi (Пособие собрание, III tom, 2-kitob, 232-bet).

Ta'lim uzuklisiz jarayon. Mana shu jarayonda o'quvchilarning tafakkurining rivojlanishining muhim bosqichlarini qamrab oladi. Shaxsning go'dakligidan to'voyaga yetguncha bo'lgan jarayonda bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yqorida biz ta'lim jarayoniga ham to'xtalib o'tdik, chunki kichik yoshdagi o'quvchilarning tafakkurning rivojlanishi ham ularning ta'lim olish bosqichlariga to'g'ri keladi. Masalan, maktabgacha ta'lim va uning davomi boshlang'ich ta'lim shu ikki bosqichda o'quvchilarning tafakkuri shaklanadi. Keyingi ta'lim bosqichlarida shaxs o'zi tafakkurini takomillashtiradi. Lekin maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limda o'qituvchining ta'siri tufayli kichik yoshdagi o'quvchilarning tafakkuri o'sadi. Shuni ta'kidlash lozimki, tafakkurning shakllanishi bu bevosita psixologiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Kichik yoshidagi bolalar tafakkur (fikir yuritish) jarayonida ayni shu chog‘da idrok qilayotgan narsalariga emas, balki ilgari idrok qilgan narsalariga ham tayana oladilar bu ularning nozik jihatlari bilan bog‘liqdir. Masalan, bolaga ilgaridan ma‘lum bo‘lgan biron topshiriq yoki savol berilsa, u o‘z tasavvuriga asoslanib xotirasining imkoniyatidan kelib chiqqan holda qiynalmay, darhol javob qaytaradi. Biroq, 6 yoshli bir boladan “yong‘oq suvda cho‘kadimi yoki oqadimi?” deb so‘ralganida, u “oqadi” deb javob bergan. Bolaning to‘g‘ri javob berganligiga sabab shundaki, u o‘z tajribasida yong‘oqni suvga tashlab ko‘rgan. Ana shu tarzda kichik yoshidagi bolalarda induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning eng sodda shakllari yuzaga kela boshlaydi.

Fikrlash - bu odamlarning qaror qabul qilish va atrofdagi dunyoga qarashlarini shakllantirish jarayoni sifatida keng talqin etiladi. Fikrlashning ikkita asosiy turi mavjud:

- 1) konvergent
- 2) divergent

Divergent fikrlash - bu juda ko‘p turli xil g‘oyalalar, assotsiatsiyalar va echimlarni yaratish qobiliyati. U muammo va muammolarni hal qilishda nostandart, ijodiy va eksperimental yondashuvlarni ifodalaydi.

Divergent fikrlashning xususiyatlari:

Moslashuvchanlik: Darhaqiqat, divergent fikrlash fikrlashda moslashuvchanlikni ta'minlaydi va bir xil vaziyatni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga imkon beradi va ijobiy jihatlarni qamrab oladi. Buning yordamida odamlar muammolarni hal qilishda turli xil yondashuvlardan foydalanishlari mumkin, bu esa yangi va original g‘oyalarni yaratishga yordam beradi. Ushbu yondashuv yashirin imkoniyatlarni ko‘rishga va maqsadlarga erishishning innovatsion usullarini topishga yordam beradi. Bitta muammoga bir va undan ortiq yechimlarni topishni ta'minlaydi.

Moslashuvchanlik: Divergent fikrlash vaziyatga turli nuqtai nazardan qarash va turli yondashuvlardan foydalanish imkonini beradi. Bu yangi va original g‘oyalarni yaratishga imkon beradi.

Moslashuvchanlik divergent fikrlashning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, vaziyatni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish va turli yondashuvlarni qo‘llash yordamini beradi. Bu nima uchun muhim:

Chegaralarni kengaytirish: Divergent fikrlash belgilangan chegaralar va standart fikrlash usullaridan tashqariga chiqishga yordam beradi. Bu sizga vaziyatni yangi burchakdan ko‘rish va muqobil echimlar yoki yondashuvlarni ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Yangi imkoniyatlarni ochib berish: fikrlashda moslashuvchan bo‘lish orqali, turlicha fikrlovchilar tor fikrlash doirasida sezilmasligi mumkin bo‘lgan muhim tafsilotlarni olishlari mumkin. Bu sizga vaziyatda yangi imkoniyatlar va potentsiallarni ko‘rish imkonini beradi.

Har bir o‘quvchimiz ijodiy fikr yuritishini shakllantirish bugungi zamo- naviy pedagoning o‘z oldiga qo‘ygan oliy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Chunki chet ta‘lim tizimida bunga katta urug‘ beriladi. Yangi darsliklarni bunga yaqqol misol sifatida keltirish mumkin. Darslikdagi topshi-riqlar o‘quvchilarning mantiqiy hamda tanqidiy fikrlashini oshiradi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning tafakkurini oshirishda yangi yondashuv, noan‘anaviy usullarni qo‘llash kreativlik deyiladi. Bundan tashqari o‘yin hamda ta‘limni integratsiya qilish ham mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari maktabgacha ta‘lim yoshidan so‘ng ta‘lim jarayoniga kirishadilar bu esa ularga biroz qiyinchilik qiladi. Chunki maktabgacha ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarning asosiy faoliyati o‘yini taskil etadi maktab esa o‘yin faoliyati

ta’limga o’zgaradi, o’quvchilarda adaptatsiya jarayoni ularga murakkablik qiladi. Shuning uchun savod o’rgatishning ilk bosqichlarida bolalar uchun moslashish jarayoni bo’ladi. Mana shu jarayonda ta’lim hamda o’yini integratsiya qilish kichik yoshdagi o’quvchilarning psixikasiga ijodiy yondashuv bo’ladi va yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarni oldindan hal qilish masalasini ilgari suradi. Bu esa pedagoglarda ko’proq o’z ustida ishlashni talab etadi. Mana shu hamma jihatlarini kreativlik qamrab oladi.

Kreativlikni biz kundalik hayotimizda ko’p marotaba qo’llaymiz. Lekin bu atamani hamma o’zidan kelib chiqqan holda talqin etiladi. Ta’lim jarayonida ijodiylik orqali ulkan muvaffaqiyatlarga erishamiz. Finlandiya ta’lim tizimida ham kichik yoshdagi o’quvchilarning tafakkurini ijodiy rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Chunki shaxsning kelajakda ulkan marralarini zabt etishi uning fikr yuritish ham mustaqil fikrlash ko’nikmalariga bog’liq, shu qatorda ularning irsiyatiga ham. Zamonaviy ta’lim tizimiga kirib kelayotgan “muammoli vaziyat” ham o’quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini oshiradi. Xalqaro baholash testlari, xususan, STEAM, PIRLS, PISA tadqiqotlarida buning yaqqol isbotini ko’rish mumki. Ushbu testlarning topshirig’i shaxsni ijodiy hamda tanqidiy fikrlashga motiv bo’ladi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, agar kichik yoshdagi o’quvchilarning IQ darajasi yuqori bo’lsa ular xalqaro baholash testlarida yuqori natija ko’rsta oladilar.

Psixologiyada divergent fikrlash mantiqdan chetga chiqqan muqobil fikrlash deb ataladi. Divergent muammo - bu juda ko’p to’g’ri javoblarga ega bo’lgan muammo. Aynan shu fikrlash turi ijodkorlik bilan tavsiflanadi. U tasavvur bilan bog’liq bo’lib, turli xil original g’oyalarni yaratish vositasi bo’lib xizmat qiladi. Divergent tipdagi vazifalar har qanday mavzu sohasidagi vazifalar sifatida tushuniladi. Shuni ta’kidlab o’tamizki, bitta shart mavjud bo’lganda va to’g’ri javoblar ko’p bo’lsa, odam amaliy faoliyatda eng ko’p duch keladigan narsadirva shularni misol keltirish mumkin:

- 1) Men kim bo’lishim kerak?
- 2) Kimga ovoz berish kerak?
- 3) Qaysi do’stni tanlash kerak?

1-topshiriq.

Sifatlarni o’rganish uchun ijodiy diktant. Vazifa kerak bo’lganda sifatlarni qo’shib, diktant matni yozish.

Masalan:

Yigitlar _____ yo’l bo’ylab ochiq joyga borishdi. Atrofdan _____ archa o’sadi. _____ daraxtlar yashil rangga aylanmoqda. Yerdan _____ buloq chiqadi. Yigitlar _____ novdalar va shoxlarni yig’ishdi. Bolalar daryo bo’yida _____ olov yoqdilar.

Kichikintoyda fikrlashni rivojlantirish uchun o’yin "Mushukchani qo’ying"

O’yin bolalarning eng muhim ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi:

- Tasavvurni rivojlantiradi
- Nutqni yaxshilaydi
- Xotirani yaxshilaydi
- Solishtirishga o’rgatadi

obyektlar ushbu o’yinni o’ynash uchun siz boladan mushukchani ko’rsatishni va uning qanchalik kichik yoki katta ekanligini qo’lda ko’rsatishni so’rashingiz kerak. Shundan so’ng, unga bir qator savollar bering:

- Mushukcha qutiga joylashadimi?

- Mushukcha hamyonga mos keladimi?
- Mushukcha shkafga sig'ishi mumkinmi?

Shunday qilib, siz mushukchani cheksiz tasavvur qilishingiz va uni turli joylarga qo'yishingiz mumkin. Bu bolada nafaqat fikrlashni, balki ob'ektlarni taqqoslash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy intellektni rivojlantirish uchun o'yinlar bolaga ma'lum ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni egallashga yordam beradi va jamiyatda o'zini qanday faol tutishni o'rganadi: muloqot qilishdan, aloqa qilishdan uyalmaslik xislatini shakllanadi. Divergent muammo - bu turli xil yechimlarga ega bo'lgan har qanday muammo. Bunday masalalar har doim boshlang'ich sinf matematika darsliklarida oz miqdorda bo'ladi, lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, faqat kam sonli bolalar bunday muammolarni hal qilishning turli usullarining ma'nosini ko'rishadi va tushunishadi.

REFERENCES

1. Tolipov, O'.Q., Ro'ziyeva, D.I. (2020) Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Fan.
2. Zufarova M.E.. Umumiy psixologiya.-T.: 2016.
3. Xaydorov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya, -T.: 2016.